

## **"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-son bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I.Tartibning VII. Kreditlarning monitoringi, kredit ta'minoti bilan bog'liq jarayonlar va kreditdan maqsadli foydalanishni nazorat qilish" bo'limi quyidagi 7.21-band va 7.21.1.dan 7.21.3.-kichik bandlar bilan to'ldirilsin:

7.21.1. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha kreditning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish (prolongatsiya), muddat uzaytirilmagan holda, grafik to'lovlariga o'zgartirish (restrukturizatsiya) kiritish kabi imtiyoz turlari qo'llaniladi (qonun hujjatlari, hukumat topshiriqlari asosida taqdim qilinadigan maxsus imtiyozlar ham qo'llanilishi mumkin). Bunda imtiyoz faqat garov ta'minotiga ega bo'lgan kreditlarning asosiy qarz to'lovlari bo'yicha taqdim qilinishi mumkin.

Agar kredit tashqi mablag'lar manbaasi hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, imtiyoz resurs egasining roziligi asosida taqdim qilinadi.

Bunda mijozning sog'ligi bilan bog'liq (1 va 2-guruh nogironligi, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar sababli mehnat qobiliyatining vaqtincha yoki yo'qolishi), hukumat qarorlari va/yoki qonun hujjatlari asosida mijozning ishsiz qolishi kabi holatlar asos sifatida olinadi.

Shuningdek, qo'shimcha shart sifatida o'zgartirilishi so'ralayotgan kredit bo'yicha ilgari 60 kundan ortiq muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lmasligi hamda kredit kredit siyosati talablariga muvofiq garov ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lishi belgilab qo'yiladi.

Yuqorida nazarda tutilmagan boshqa hollarda Bank boshqaruvi qaroriga asosan ko'rib chiqiladi.

7.21.3. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishni so'rab murojaat qilingan arizalar ro'yxatga olingan holda tegishli vakolatli kollegial organ tomonidan 3 (uch) ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Agar kollegial organ tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, mijozga yozma ravishda 1 (bir) bank ish kuni ichida xabar beriladi. Bunda hujjatlarni rasmiylashtirish

modulsiz bo'lgan kreditlarni ajratish biznes-jarayonlari asosida amalga oshiriladi.

Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish mijozning kredit qoldig'iga nisbatan aniqlanadi hamda kredit siyosatining vakolatlar darajasiga qarab tegishli kollegial organ tomonidan qaror qabul qilindi. Kredit siyosati 4- ilovasining 9.2 kichik bandida belgilangan vakolatlar darajasi doirasida vakolatli organning ijobiy qaroriga asosan amalga oshiriladi:

a) 2,0 (ikki) mlrd. so'mgacha ajratiladigan kreditlar - HKXKM Kredit komissiyalari ijobiy qaroriga asosan;

b) 2,0 (ikki) mlrd. so'mdan yuqori kreditlar - Bank Kredit qo'mitasi qaroriga asosan;

c) amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda – Bank Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qaroriga asosan.